

ISLOM MANBALARIDA BAG'RIKENGLIK VA TINCHLIKPARVARLIK G'OYALARI

**Ernazarova Sitora Amir qizi,
Samiyeva Zarina Muzaffar qizi**

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabalari

Ilmiy rahbar: **Adambayev Umidbek Xaitbayevich,**

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada islom dinida bag'rikenglik, bag'rikenglikda musulmonlarga ta'lif bergan Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning hayotlari, musulmonlarning boshqa din vakillari bilan munosabatlari, bugungi kunda bag'rikenglikning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, muohad, hadisi sharif,

Abstract: This article discusses the importance of tolerance in Islam, the life of the Prophet Muhammad (s.a.v) who taught Muslims in tolerance , the attitude of Muslims towards other religions, and the importance of tolerance today.

Keywords: tolerance muahad hadith sharif

Dinlaringiz to'g'risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o'z diyorlaringizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishlaringizdan va ularga adolatli bo'lishlaringizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatlilarni sevar.

(Qur'oni Karim, Mumtahana surasi, 8-oyat)

Bag'rikenglik so'zi deyarli barcha tillarda mavjud va bir xil yoki bir birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Bag'rikenglik o'zi nima? Bag'rikenglik qanday hollarda namoyon bo'ladi? 1995-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida" gi deklaratsiya qabul qilingan. Ushbu deklaratsiyada "Bag'rikenglik fuqarolik jamiyatining qadiriyati va ijtimoiy normasi bo'lib, barcha fuqarolarning turlicha bo'lish huquqida namoyon bo'ladi: turli konfessiyalar, siyosiy etnik va boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasida barqaror totuvlikni taminlash; dunyoning turli madaniyatları, sivilizatsiyalari va xalqlarning xilma-xilligini hurmat qilish, tashqi ko'rinishi, tili, e'tiqodi, urfatlari va e'tiqodlari bilan farq qiladigan odamlarni tushunish va hamkorlik qilishga tayyorgarlik"[3] deb ta'rif beriladi. Bag'rikenglik bugungi kunda dunyoda tinchlikni ta'minlash, rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag'rikenglik kecha yo bugun paydo bo'lgan tushuncha emas. Bag'rikenglik asrlar osha yashab kelayotgan qadiryatdir. Bag'rikenglik chinakam islomiy fazilatdir, arab tilida "Samaahatul islam"[5] deyiladi. Islom dinida bag'rikenglikka alohida e'tibor beriladi. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimni o'qiganimizda mo'minlarga qarata aytilgan musulmonlarga xitob bilan boshlangan oyati karimalarni ko'p uchratamiz. Bunday oyatlar "Yo ayyuhallaziyna aamanuu", "Ey iymon keltirganlar!" degan buyuk xitoblar bilan boshlanadi. Ammo Kalomullohning qolgan barcha oyatlari umuminsoniy umumbashariy ko'rsatmalar bo'lib ularda dinidan, irqidan, jinsidan qat'i nazar, Bani odam nazarda tutiladi.

Alloh taolo "Isro" surasining 70-oyatida: "Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo'ydik" deydi[1].

Hadisi shariflarda ham xuddi shunday: “Kimki bir daraxt eksa va undan hayvonmi, qushmi, hasharotmi, odamzotmi yesa, uni ekkан odama savob bo‘ladi”, degan mazmundagi hadisda ham har qanday inson nazarda tutilgan, uning dini yoki boshqa bir jihatи qayd qilinmagan. Yana bir hadisi sharifda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v): - “ Odamlarga rahm qilmaganga Alloh ham rahm qilmaydi”[4], deganlar. Ushbu hadisda ham faqatgina musulmonlar emas, har bir inson nazarda tutilgan. Shu kabi oyat va hadislarda dinimizning bag‘rikengligi va tinchliksevar din ekanligi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Payg‘ambar alayhissalomning huzurlariga bir guruh ansoriylar kelib, “Ey Allohnning Rasuli! Soqif qabilasi hidoyatga kirmayabti ularni duoibad qiling deyishganida u zot alayhissalom “Allohumma ihdi Saqifa” - “Allohim, Saqifni hidoyat qil dedilar. Ansoriylar yana “Ey Allohnning Rasuli! Ularni duoibad qiling qiling “deyishdi. Biroq Rasululloh (s.a.v) yana “Allohim Soqifni hidoyat qilgin”[4] dedilar. Uchinchi marotaba so‘rashganda ham shu duoni qildilar. Ushbu holat bag‘rikenglikning yorqin namunasidir. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ushbu amallari orqali islom dini bag‘rikeng din ekanligini yana bir bor barchaga eslatib o‘tadilar.

Tarixdan bunday misollar ko‘p uchraydi. Oisha onamiz roziyallohu anhodan rivoyat qilinadiki, Payg‘ambar alayhissalom vafot qilishlaridan oldin bir yahudiyga o‘z sovtularini garovga berib, undan 30 so‘ arpa sotib olgan ekanlar. Oisha onamiz roziyallohu anho mana shu voqeani u zotning bag‘rikenglik borasida o‘z ummatlariga ko‘rsatgan eng katta ta’limlari deganlar.

Islom dini insoniyatga azal azaldan insoniyatga mehr-muruvvatni, tinchliksevarlikni, dindoshlarga va boshqa din vakillariga ehtiromda hamda bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatib kelgan va kelmoqda. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) bu borada insoniyatga ibrat namuna bo‘ldilar.

Islom dini manbalarini o‘qir ekanmiz, islom dinida bag‘rikenglikka, o‘zga din vakillariga ko‘rsatilgan hurmat va ehtiromga ko‘p bora duch kelamiz. Islom dinida alohida e’tibor beriladigan oila va oziq-ovqat masalasida bunga guvoh bo‘lamiz . Dinimiz turli din vakillari birqalikda yashashlari, bir birlariga ko‘ngil qo‘yishlari, bir- birlarini mehmon qilishlarini hisobga olib, musulmonlarga boshqa dindagi ayollar bilan turmush qurishni va ular so‘yan halol hayvonlar go‘shtini tanovul qilishni halol qildi. Alloh taolo bu haqda Moida surasida: “Bugungi kunda sizlarga barcha pok narsalar halol qilindi. Kitob berilganlarning taomi siz uchun haloldir. Sizning taomingiz ular uchun haloldir. Iffatlari saqlangan mo‘minalar va sizdan oldin kitob berilganlardan bo‘lgan iffatlari saqlangan ayollar ham” deydi. (5- oyat)

Ushbu oyat karimaga binoan musulmon odam samoviy kitobga ega din axllarining taomini tanovul qilsa va ularga o‘zi ham taom bersa , shuningdek ularning ayollariga uylansa bo‘ladi. Boshqa mushriklar ya’ni ahli kitob bo‘limganlar haqida esa, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) “ularga ahli kitobga qilingan sunnatni qilinglar, faqat ayollariga uylanmang va so‘yishlarini yemagan holda” deganlar[2, 96].

Islom dini musulmon davlatga boshqa din vakillarining ibodatxonalarini ximoya qilishni, ularning diniy aqidaviy masalalarga aralashmaslikni, ularni musulmonlar bilan teng ko‘rishni, insoniy haq huquqlarini himoya qilishni talab etadi. Bu ma’noda Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning quyidagi ikki hadislari kifoya qiladi.

Abdulloh ibn Amr roziallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Nabiy (s.a.v) kim bir muohadni o‘ldirsa, jannatning hidini hidlamaydi . Holbuki uning hidi qirq yillik yo‘ldan tuyuladi”, dedilar: Buxoriy rivoyat qilgan.

Muohad-musulmonlar bilan ahslashib, musulmonlar yurtida yashaydigan kishi, zimmiy.

“Hoy kim bir muohidga yoki uning haqqini poymol etsa, yohud uni toqati yetmaydigan narsaga majbur qilsa, yoki undan o‘z roziligesiz bir narsa olsa, qiyomat kuni men o‘sha odamning xusumadchisi bo‘laman”[2, 98].

Bag'rikenglik yuksak umuminsoniy qadiryat bo'lib hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi . Zero O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va dinlararo totuvlikni, fuqarolar hamjihatligini yanada mustahkamlash, yagona xonadoshishimiz bo'lmish O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha insonlarning millati va dini, irqi va jinsiga qaramasdan, ularning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, bu boradagi ishlarimizning asosiy ma'no mazmuniga aylanishi darkor".

Bag'rikenglik nafaqat O'zbekiston yoki musulmon davlatlar balki butun dunyo insonlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham 1995-yil 16-noyabrdan YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida" gi deklaratsiya qabul qilingan kun 16-noyabr butun dunyo bo'ylab "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida keng nishonlanadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni Karim. – T.: "Hilol-nashr", 2020.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2022.
3. "Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida"gi 1995 yil 16-noyabrdan qabul qilingan deklaratsiya.
4. Imam Al Buxoriy. Al-jome as-sahih. – T.: "Hilol-nashr", 2021.
5. Kalkanov Eshmatboy. (2021) [Patriotism and Socio-Spiritual Factors that Patriotism](#). International Journal of Development and Public Policy. –pp. 177-179.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2022 - Б. 293.
7. Karimov D. (2022) O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). [Milliy o'zlikni anglash millat taraqiyotining poydevori](#) // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) [Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии](#). Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). [Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan](#). International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Kandov B. (2022) [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#). Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
14. Адамбаев Умидбек. (2022) [Ишонч-эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири](#) / Scientific progress. – pp. 348-351.
15. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) [Экологик маданият ва уни шакллантириш](#) // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.

17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) [Navro‘z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati](#). Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) [Ишонч-эътиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни](#) // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баҳодир Мирзаевич Қандов. (2021) [The importance of forming an active civic position among young people](#). Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). [Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization](#) // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) [Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty](#). – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). [Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment](#) // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) [The role of education in the development of environmental consciousness of a person](#). ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) [Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic](#) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. **Оғабек Султанов (2021). Таалаба-ёшларнинг ахлоқий бурчини шакллантириш – комил инсон тарбиясининг муҳим омили / Academic Research in Educational Sciences, -р. 315-320.**
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. [Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan](#) // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academicia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.
29. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) [Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan](#). EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
30. Adambaev U. (2021). [Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb](#) // Экономика и социум. – С.18-21.